

O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-787-son Qonuni 2022-yil 4-avgust

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini imzoladi (O‘RQ–787-son, 04.08.2022 y.)

Qonun bilan quyidagi asosiy tushunchalar belgilandi:

Soliq maslahatiga oid faoliyat – soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;

Soliq maslahatchisining malaka sertifikatini – soliq maslahatchisining malakasini tasdiqlovchi va soliq maslahatchilari tashkiloti nomidan soliq maslahati bo‘yicha xizmat ko‘rsatish huquqini beruvchi hujjat;

Soliq maslahatiga oid xulosa – soliq maslahatiga doir shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni ko‘rsatgan soliq maslahatchisining fikrini o‘z ichiga olgan hujjat;

Talabgor – soliq maslahatchisining malaka sertifikatini olishga da‘vogar bo‘lgan jismoniy shaxs.

Shuningdek, Qonunda Soliq maslahatiga oid faoliyatning asosiy, qonuniylik, mustaqillik, kasbiy bilimga egalik, mahfiylik prinsiplari ham belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, soliq maslahati faoliyatiga oid xizmatlar ham alohida belgilab berildi. Jumladan:

- mijozga soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash, soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish masalalari bo‘yicha maslahat berish;

- soliq hisobotini tayyorlash, shu jumladan, soliq hisobotini mijoz nomidan uning shaxsiy kabineti orqali yuborish;

- ortiqcha undirilgan yoki to‘langan soliqlar hisobidan soliq qarzini qaytirish va (yoki) to‘lash, soliqlarni to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish uchun soliq organlariga taqdim etish lozim bo‘lgan hujjatlarni tayyorlash;

- soliq hisobini yuritish;

- soliq solish ob‘ektlari va soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan ob‘ektlarni aniqlash,

- soliqqa oid va moliyaviy tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholash, mijozga soliq imtiyozlarini qo‘llashga doir tavsiyalar berish;

- sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda vakillik qilish;

- mijoz tomonidan o'z soliq majburiyatlari muayyan davr, shu jumladan ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda to'g'ri bajarilishini tekshirish;
- soliqqa oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq boshqa xizmatlar.

Quyidagilar soliq maslahati hisoblanmaydi:

- Soliq organlari, mahalliy davlat hokimiyat va boshqa davlat organlari o'z vakolati doirasida soliq to'g'risidagi qonunchilikni tushintirishi;
- Soliq solish masalalari bo'yicha advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish, sudda va boshqa davlat organlarida vakillik qilish.

Moliya vazirligi soliq maslahatiga oid faoliyat sohasidagi **vakolatli davlat organi** deb belgilanmoqda.

O'zbekiston Soliq maslahatchilari palatasi – soliq maslahatchilarining, soliq maslahatchilari tashkilotlarining ixtiyoriy a'zolari asosida tashkil etiladigan kasbiy birmalshma.

Qonun bilan faoliyati Soliq maslahatchilari palatasi tomonidan tartibga solinadigan Ekspert kengashi tashkil etilishi ham belgilandi.

Shuningdek, soliq maslahatchisi va uning yordamchisi tegishli tartibda ta'riflangan:

Soliq maslahatchisi – malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

Soliq maslahatchisining yordamchisi – malaka sertifikatiga ega bo'lmagan va soliq maslahatchisining soliq maslahatiga oid faoliyat bilan bog'liq topshiriqlarini bajaruvchi jismoniy shaxs.

Soliq maslahatchilari tashkiloti – soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tijorat tashkiloti. Shuningdek, tashkilotning funktsiya va vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida [Qonun bilan batafsil tashing](#).

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan 3 oy o'tgach kuchga kiradi.